

## **QISHLOQ XO‘JALIGI TEXNIKA INQILOBINI EKOLOGIYAGA TA’SIRI**

***Onorboyev Shavkatjon Shamsiddinovich***

*(Farg‘ona politexnika instituti qurilish fakulteti magistranti)*

***Zulfiyeva Dilshodaxon Muxitdin qizi***

*(Farg‘ona agroxizmatlar markazi laboratoriya mudiri)*

**Kirish:** Xozirgi kunda dunyo aholisining ko‘payishi va oziq ovqatga bo‘lgan talabi yerga ekin ekish jarayonini keskin oshirdi. Shu bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi yerlarining barqarorligini saqlab qolish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. So‘ngi yillarda Muxtaram Prezidentimiz tashabussi bilan qishloq xo‘jaligiga juda katta ahamiyat berilyapti. Zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan texnikalar yurtimizga olib kelinib bobodehqonlarimiz ishini yanada jadallashtirmoqda. Tuproq unumdorligini oshirish maqsadida yil davomida agrotexnik tadbirlar muntazam olib borilyapti.

Avvallari boshhoqli ekin xisobda bug‘doy iyun oyining birinchi 10 kunligida pishib yetilib bitta yer maydonini o‘rish uchun 3 kun vaqt ketardi. Somonini yig‘ishtirish uchun esa kamida 7 kun, yerni qayta tayyorlash uchun 10 kun kerak bo‘lar edi. Demak bu‘g‘doy 10 iyun kuni o‘rilsa bo‘shagan yer maydoniga qayta ekin ekish uchun kamida 20 kun kerak bo‘lar edi. Tassavur qiling 10 gektar yer bug‘doydan bo‘shab ikkinchi ekin ekilguncha 15 kun yaylov vazifasini bajaradi. Cho‘ponlarimiz qo‘ylarini boqsa, agar qishloqda jami 300 bosh qo‘y bo‘lsa va bitta qo‘y bir kunda o‘rtacha 1,09 kg go‘ng bersa, kunning 3 dan bir qismida dalada o‘tlasa 0,36 kg go‘ng tashlaydi.

Demak  $0,36 \text{ kg} \times 300 = 108 \text{ kg}$

$108 \text{ kg} \times 15 \text{ kun} = 1680 \text{ kg o‘g‘it}$

$1620 \text{ kg} \times 0,05\% \text{ yoki } 81 \text{ kg azot}$

$1620 \text{ kg} \times 0,29\% \text{ yoki } 469 \text{ kg fosfor.}$

$1620 \text{ kg} \times 0,06\% \text{ yoki } 97,2 \text{ kg kaliy}$

Bundan tashqari bir bosh yirik qoramol bir yilda 1 tona go'ng berishini inobatga olsak,

$$1000 \text{ kg} : 365 \text{ kun} = 2,73 \text{ kg.}$$

Yirik shoxli qoramollar yoz kunlari 12 soat dalada bo'ladi.

Bundan chiqadiki

$$2,73 \text{ kg} : 2 = 1,36 \text{ kg}$$

$$15 \text{ kun} \times 50 \text{ ta qoramol} \times 1,36 \text{ kg go'ng} = 1020 \text{ kg go'ng beradi.}$$

Bu raqamlar juda ko'p emas, lekin qaysidir miqdorda qo'shimcha tekin o'g'it.

Agar bug'doyzor 20 maydan boshlab sariq tusga kirishini xisobga olsak yer maydoni kamida 27 kun sariq tusda 10 kun qo'ng'ir tusda bo'lar edi. Endigi vaqtga kelib:

O'rish uchun 1 kun

Yig'ishtirish uchun 2 kun

Xaydash uchun 1 kun

Qayta ekish uchun 1 kun kerak bo'ladi.

Ekilgan ekinni unib chiqishi uchun 10 kun kerak bo'lib deyarli 15 kunda yer unib yashil tusga kiradi. 10 iyunda birlamchi ekinlar bu sirada 25 iyunda ikkinchi ekin yashil tusda bo'ladi. Bizga ma'lumki sariq rang spektrda yashildan oldin turadi, atmosferaga quyosh nurini qaytishi sariq rangda ko'proq. Biz yashayotgan joylarda yani Farg'ona tumanida yomg'irlar mavsumi avvalgidak emas. Avvalgidan kechroq va shiddatsiz tus olmoqda. Yerning quyosh nuriga to'yinganlik darajasi esa pastroq.

**XULOSA:** Xozirgi kunda texnikalar jadal rivojlangan davrda ekini ekishdan to o'rish davrigacha bo'lgan jarayon tezlashib ketmoqda. Natijada yerlarimiz avvalgidek quyosh nuriga va organik o'g'itga to'laligicha to'yinmay qolyapti. Qishloq xo'jaligida unumdorlikni oshirish yo'lida qilinayotgan samarali xarakterimiz kelajakda tabiatga zarar bo'lib qolmasligi kerak, tuproqning xolati keyingi avlodlarga yaxshi xolatda bo'lishi kerak. Chorva yetishtirish uchun esa yer maydonlari tobora qisqarib bormoqda. Bu esa o'z navbatida yildan yilga chorvachilikni qisqarishiga olib kelmoqda va insonlar uchun sut va go'sht maxsulotlariga bo'lgan talab muammoga aylanib qolmoqda.